

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2025.27.12.Ped.13.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SHUKUROV AVAZJON RO‘ZIBOYEVICH

**BO‘LAJAK CHIZMACHILIK FANI O‘QITUVCHILARINI KOMPYUTER
ANIMATSION 3D MODELLARDAN FOYDALANISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (chizmachilik)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Shukurov Avazjon Ro‘ziboyevich

Bo‘lajak chizmachilik fani o‘qituvchilarini kompyuter animatsion 3D modellardan foydalanish metodikasini takomillashtirish.....

Шукуров Авазжон Рўзибоевич

Совершенствование методики использования компьютерно анимационных 3D моделей для будущих учителей черчения 25

Shukurov Avazjon Ro‘ziboyevich

Improving the methodology of using future drawing teachers from computer animation 3D models 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 53

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2025.27.12.Ped.13.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SHUKUROV AVAZJON RO‘ZIBOYEVICH

**BO‘LAJAK CHIZMACHILIK FANI O‘QITUVCHILARINI KOMPYUTER
ANIMATSION 3D MODELLARDAN FOYDALANISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (chizmachilik)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Ped6673 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdpi.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yadgarov Nodir Jalolovich

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.

Rasmiy opponentlar:

Mardov Sanjar Xudoykulovich

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.

Turayev Xumoyiddin Abdug'afforovich

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2025.27.12.Ped.13.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "15" avgust soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200100, Buxoro shahri, Piridastgir ko'chasi, 2-uy. Tel.: 0(365) 226-10-97; faks: 0(365) 226-66-75, e-mail: buxdpi@buxdpi.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat pedagogika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200100, Buxoro shahri, Piridastgir ko'chasi, 2-uy. Tel.: 0(365) 226-10-97; e-mail: buxdpi@buxdpi.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "____" avgust kuni tarqatildi.

(2026-yil "____" _____dagi 18 - raqamli reyestr bayonnomasi)



B.B. Ma'murov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d. (DSc), professor

G.R. Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.d. (DSc), professor

M.M. Bafayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, ps.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim tizimida 3D vizualizatsiya, virtual modellashtirish, raqamli grafik muhit hamda animatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiyalash asosida texnik va muhandislik ta'limi samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar keng joriy etilmoqda. AQShda "Teach For America"¹, Germaniyada "Industrie 4.0"² hamda Janubiy Koreyada "Smart Education"³ konsepsiyalari asosida AutoCAD, 3ds Max, SketchUp, SolidWorks va Revit dasturiy vositalari yordamida murakkab grafik obyektlarning tuzilishi, proyeksiyasi hamda fazoviy ko'rinishini interaktiv o'qitish, bo'lajak o'qituvchilarning raqamli grafik kompetensiyasi, fazoviy tafakkuri, virtual modellashtirish ko'nikmalari va animatsion-pedagogik faoliyatini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan amaliy loyihalarni tatbiq etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida bo'lajak pedagoglarning raqamli kompetentligini rivojlantirish, interaktiv o'quv muhitini shakllantirish hamda zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiyalashga qaratilgan innovatsion yondashuvlar asosida STEAM-ta'lim, virtual laboratoriyalar, raqamli simulyatsiyalar, immersiv va XR texnologiyalar vositasida chizmachilik hamda muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishning yangi metodikalarini ishlab chiqish, bo'lajak o'qituvchilarning raqamli grafik kompetensiyasi, fazoviy-intellektual tafakkuri, texnik-konstruktiv fikrlashi, grafik savodxonligi, virtual modellashtirish ko'nikmalari, kreativ loyihalash qobiliyati hamda animatsion-pedagogik faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlarga alohida ahamiyat berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimini raqamli transformatsiya qilish, chizmachilik va muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda elektron o'quv platformalari, intellektual vizual tizimlar, raqamli konstruktorlik muhiti, interaktiv grafik dasturlar, multimedaviy taqdimot texnologiyalari hamda kompyuter animatsion 3D modellarini joriy etishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. Ta'lim tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, raqamli ta'lim muhitini rivojlantirish hamda innovatsion dasturiy vositalardan foydalanish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.⁴ Bu bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarini kompyuter animatsion 3D modellardan foydalanish metodikasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini

¹ Teach For America. Teaching as Leadership: The Highly Effective Teacher's Guide to Closing the Achievement Gap / S. Farr. — San Francisco: Jossey-Bass, 2010. — 352 p.

² Industrie 4.0. Industrie 4.0 in Produktion, Automatisierung und Logistik: Anwendung, Technologien und Migration / H. Kagermann, W. Wahlster, J. Helbig. — Wiesbaden: Springer Vieweg, 2015. — 648 p.

³ Smart Education. Smart Education and e-Learning 2020 / V. Uskov, R. Howlett, L. Jain. — Singapore: Springer, 2020. — 561 p.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>.

rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari va 2017-yil 20-apreldagi PQ–2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son “Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi” Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Mavzuning respublikada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustivor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari” ustivor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ta'lim jarayonida kompyuter grafik dasturlarining nazariy ta'minoti va amaliy imkoniyatlari T.Rixsiboyev, D.Q.Mamatov, A.Sh.Aminov, F.A.Alisherov, A.Sh.Muxamadiyev, N.N.Poleshuk, D.A.Epov, O.S.Milovskaya, S.M.Timofeyev, Kelli Murdok; chizmachilik fanining fundamental asoslari va o'qitish metodikasi R.Xorunov, Y.Qirg'izboyev, Sh.Murodov, J.Yadgarov, R.Ismatullayev, I.Rahmonov, A.Umronxo'jayev, E.Ro'ziyev, P.Odilov, N.Yadgarov; grafik fanlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarining grafikaviy dasturiy vositalaridan foydalanishning usul va metodlarini takomillashtirish E.I.Ro'ziyev, N.J.Yadgarov, A.K.Xamrakulov, D.S.Saidahmedova, Sh.D.Dilshodbekov, A.A.Qahhorov, S.S.Azimov, D.Q.Mamatov, D.I.Mamurova, Sh.N.Muslimov, X.A.Turayev, S.X.Mardov, R.A.Latipov kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida kompyuter grafik dasturlar va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini grafikaviy fanlarni o'qitish jarayonida joriy etish L.V.Ivannikova, Y.I.Pritula, A.Y.Lixachev, T.V.Sofronova, O.I.Filatova, S.A.Gudkov, A.A.Pavlovalar tomonidan tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Xorijda kompyuter grafik dasturlar va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayonida joriy etish muammolari bo'yicha John Lasseter, Danilo Jimenez Rezende, Isak Viktor Kerlou, Syeda Binish Zahra, Roland Kangong, Baha Mustafa, Kaichun Mo, Xinchun Yanlar ilmiy izlanishlarini olib borishgan.

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarini kompyuter animatsion 3D modellardan foydalanish metodikasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

3D texnologiyalardan chizmachilik fanini o'qitish jarayonida foydalanishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

kompyuter animatsion 3D modellardan foydalanib chizmachilik fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish;

chizmachilik fanini o'qitish jarayonida kompyuter animatsion 3D modellardan foydalanish metodikasi modelini takomillashtirish;

bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarida kompyuter animatsion 3D modellardan foydalanish jarayonini tashkil qilish, tajriba sinov ishlarini o'tkazish va samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarini kompyuter animatsion 3D modellardan foydalanish metodikasini takomillashtirish jarayoni bo'lib, unda Buxoro davlat pedagogika instituti, Qarshi davlat universiteti, Navoiy davlat universitetining jami 264 nafar talabalari ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarini kompyuter animatsion 3D modellardan foydalanish metodikasini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot muammosiga oid ilmiy-nazariy, pedagogik manbalar, metodik adabiyotlar, DTS, malaka talablarini o'rganish va qiyosiy tahlil qilish, modellashtirish (loyihalash); bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarida fazoviy tasavvur va grafik savodxonlikni rivojlantirishni muammo nuqtayi nazaridan tahlil qilish; ijtimoiy-pedagogik (suhbat, so'rovnomalar, kuzatish) hamda tajriba-sinov ishlarini o'tkazish va natijalarni statistik-matematik qayta ishlash metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

chizmachilik fanini o'qitishda kompyuter animatsion 3D modellardan foydalanish metodikasini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari, fazoviy tasavvurni bosqichma-bosqich AR texnologiyalardan foydalanib rivojlantirish hamda tayyorgarlik sifatiga qo'yiladigan kompetensiyaviy talablarni o'zaro uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan;

kompyuter animatsion 3D modellardan foydalanish metodikasi, tasavvurni oshirish, ta'sirchanligini kuchaytirish hamda vizual axborotlarni kiritish, tekislikdagi statik tasvirni dinamik tasvirga almashtirish asosida takomillashtirilgan;

pedagogik model grafik axborotni vizual-kognitiv idrok etish, fazoviy tafakkurni rivojlantirish va interaktiv ta'lim muhitini integratsiyalash asosida takomillashtirilib, unda o'quv materiallarini strukturalash, axborotni bosqichma-bosqich o'zlashtirish, grafik topshiriqlarni vizual tahlil qilish hamda talabalarning grafik savodxonligi, virtual modellashtirish ko'nikmalari va animatsion-konstruktiv fikrlashini rivojlantirish mexanizmlari modernizatsiya qilingan;

chizmachilik fanini o'qitish jarayonida kompyuter animatsion 3D modellar, QR-kodli "Mobil-ta'lim" texnologiyasi, audial-vizual-kinestetik metodlar hamda interaktiv o'quv-metodik ta'minotni integratsiyalash natijasida talabalarning fazoviy tasavvuri, grafik savodxonligi, mustaqil o'zlashtirish qobiliyati va kasbiy-intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi oshirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

chizmachilik fanini o'qitish jarayonida talabalarda fazoviy tasavvur va grafik savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish ilmiy-metodik muammo sifatida tavsiflanib, chizmachilikdagi kompyuter animatsion 3D modellar vositasida bilish faoliyati qobiliyatlarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari aniqlangan;

kompyuter animatsion 3D modellardan foydalanishda fazoviy tasavvurni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va metodik ta'minotini amalga oshiruvchi

hamda talabalarning grafik savodxonligini rivojlantirishga yo'naltirilgan "Proyeksion chizmachilik" nomli o'quv qo'llanma nashr qilingan;

chizmachilikni o'qitish jarayonida talabalarda grafik savodxonlikni rivojlantirishga ko'maklashuvchi, o'zlashtirish qobiliyatini oshirish imkoniyatlarini aks ettiruvchi "Geometrik chizmachilik" nomli o'quv qo'llanmasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plami, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda e'lon qilingan maqolalar, nashr etilgan o'quv qo'llanma va ular haqidagi retsenziyalar, respondentlar bilan o'tkazilgan savol-javob, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chizmachilik fanini kompyuter animatsion 3D modellari vositasida o'qitish jarayonini takomillashtirish ilmiy-nazariy jihatdan asoslanganligi, samarali metodlar bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchisining kompyuter grafikasi vositalarini mashg'ulotlarda qo'llashdagi faoliyatini inovatsion texnologiyalar asosida loyihalash imkoniyatlari yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada berilgan tavsiyalardan bo'lajak o'qituvchilarda chizmachilik o'quv mashg'ulotlari va darsdan tashqari mashg'ulotlarda amaliy foydalanish, chizmachilik o'quv fani mazmunini, o'quv dasturlari mazmunini takomillashtirish animatsion 3D modellardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarini kompyuter animatsion 3D modellardan foydalanish metodikasini takomillashtirish asosida:

chizmachilik fanini o'qitishda kompyuter animatsion 3D modellardan foydalanish metodikasini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari, fazoviy tasavvurni bosqichma-bosqich AR texnologiyalardan foydalanib rivojlantirish hamda tayyorgarlik sifatiga qo'yiladigan kompetensiyaviy talablarni o'zaro uyg'unlashtirish asosida takomillashtirish bo'yicha tavsiyalardan "Geometrik chizmachilik" nomli o'quv qo'llanmani yaratishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentabrdagi 302-0480 sonli guvohnomasi). Natijada chizmachilik fanini o'qitishda 3D texnologiyalarning didaktik imkoniyatlari aniqlanib, fazoviy tafakkur va grafik savodxonlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik ta'minot takomillashtirilgan;

kompyuter animatsion 3D modellardan foydalanish metodikasi, tasavvurni oshirish, ta'sirchanligini kuchaytirish hamda vizual axborotlarni kiritish, tekislikdagi statik tasvirni dinamik tasvirga almashtirish bo'yicha tavsiyalardan "Proyeksion chizmachilik" nomli o'quv qo'llanmani yaratishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 17-iyuldagi 314-344 sonli guvohnomasi). Natijada kompyuter animatsion 3D modellardan foydalanish asosida o'quv-metodik mazmuni boyitilib, talabalarda statik tasvirni dinamik holatda idrok etish, vizual axborotni tahlil qilish va fazoviy tasavvurni mustahkamlash imkoniyatlari kengaytirilgan;

pedagogik model grafik axborotni vizual-kognitiv idrok etish, fazoviy tafakkurni rivojlantirish va interaktiv ta'lim muhitini integratsiyalash asosida takomillashtirilib, unda o'quv materiallarini strukturalash, axborotni bosqichma-bosqich o'zlashtirish, grafik topshiriqlarni vizual tahlil qilish hamda talabalarning grafik savodxonligi, virtual modellashtirish ko'nikmalari va animatsion-konstruktiv fikrlashini rivojlantirish mexanizmlari modernizatsiyalash bo'yicha tavsiyalardan "Proyeksion chizmachilik" nomli o'quv qo'llanmani yaratishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentabrdagi 302-0480 sonli guvohnomasi). Natijada kompyuter animatsion 3D modellar asosida chizmachilik fanini o'qitishning pedagogik-metodik modeli takomillashtirilib, talabalarning grafik faoliyatni interaktiv tashkil etish hamda murakkab grafik obyektlarni bosqichma-bosqich vizual idrok etish intensivligi ta'minlangan;

chizmachilik fanini o'qitish jarayonida kompyuter animatsion 3D modellar, QR-kodli "Mobil-ta'lim" texnologiyasi, audial-vizual-kinestetik metodlar hamda interaktiv o'quv-metodik ta'minotni integratsiyalash natijasida talabalarning fazoviy tasavvuri, grafik savodxonligi, mustaqil o'zlashtirish qobiliyati va kasbiy-intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalardan "Proyeksion chizmalar bo'yicha o'quv qo'llanma" nomli Sanoat namunasi uchun patent yaratishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan SAP 2704-raqamli guvohnomasi). Natijada bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarida kompyuter animatsion 3D modellardan foydalanish jarayonini tashkil etish, tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish hamda o'quv mashg'ulotlarini interaktiv tashkil qilish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy amaliy anjumanda muhokamadan o'tkazilgan va ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 11 ta, shu jumladan, Oliy attestatsiya tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini e'lon qilish uchun tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda, 6 ta maqola, shundan 5 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, dissertatsiyaning umumiy hajmi 136 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ularning ishonchliligi, ilmiy, amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar, shuningdek, dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Chizmachilik fanini o'qitish jarayonida kompyuter animatsion 3D modellaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlangan bo'lib, chizmachilik fanini o'qitish jarayonida kompyuter animatsion

3D modellardan foydalanishning pedagogik muammolari tahlili keltirilgan. Shuningdek, kompyuter animatsion 3D modellardan foydalanib “Chizmachilik” fanini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari, hamda chizmachilik fanida kompyuter animatsion 3D modellardan foydalanishning didaktik imkoniyatlaridan ko‘rgazmalilik vositasida foydalanish, ularni ta’lim jarayoniga qo‘llash zarurati ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan, muammo nazariy jihatdan o‘rganilgan.

Jahonda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh yo‘nalishi ta’limga qaratilgan bo‘lsa, bu jarayonning samaradorligi natijasini belgilab beruvchi asosiy omillaridan biri bu texnika-texnologiya taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqdir.

Yangi texnologiyalar ixtiro qilinayotgan yoki amaldagisini takomillashtirish jarayonida raqamli texnologiya-grafik dasturlar asosiy konteks hisoblanadi.

Jumladan kompyuter texnologiyalari ta’lim jarayonining tashkiliy qismini asosiy omili sifatida qaralayotgan bir paytda, grafik dasturlar ko‘p tarmoqli ekanligi va sohaning ehtiyojini ta’minlovchi dasturni qo‘llash, imkoniyatlari doirasida ommalashtirish, sohaning rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi.

Bu borada, respublikamiz olimlaridan grafik fanlarni o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarining grafikaviy dasturiy vositalaridan foydalanishning usul va metodlarini yaratish muammolari yuzasidan E.I.Ro‘ziyev, N.J.Yadgarov, A.K.Xamrakulov, D.S.Saidahmedova, Sh.D.Dilshodbekov, A.A.Qahhorov, S.S.Azimov, D.Q.Mamatov, D.I.Mamurova, Sh.N.Muslimov, X.A.Turayev, S.X.Mardov, R.A.Latipov va boshqa olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Mamlakatimiz olimlarining ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan bir paytda chizmachilik fanini o‘qitishda 3D texnologiyalaridan foydalanish muammolari tadqiq qilingan.

Chizmachilik ta’lim amaliyoti va nazariyasida olimlarimizdan R.Xorunov, Y.Qirg‘izboyev, Sh.Murodov, J.Yadgarov, R.Ismatullayev, I.Rahmonov, A.Umronxo‘jayev, P.Odilovlar munosib iz qoldirib, kompyuterda 3D texnologiyalari rivojlanmagan bir davrda talabalarining intellektual qobiliyatlari va amaliy faoliyat malakalarini uch o‘lchamli yaqqol tasvir chizmalari vositasida rivojlantirishda foydalanib kelingan.

Ayni paytda mamlakatimiz oliy ta’lim tizimida zamonaviy grafik dasturlarni ta’lim amaliyotiga keng ko‘lamda joriy etishga katta e’tibor berilmoqda.

Jumladan mamlakatimiz ta’lim tizimiga doir islohotlar doirasida oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida “Ta’lim sifatini yaxshilash borasidagi ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va amaliyotga tadbqiq etish jarayonlarini jadallashtirish va o‘qitish usullarini takomillashtirish”⁵ ustivor vazifa etib belgilangan.

O‘rganilgan manbalar tahliliga ko‘ra MDH mamlakatlarida muhandislik grafik fanlarini o‘qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish va ta’lim jarayonini faollashtirish muammolariga oid ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lib,

⁵ O‘zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni. O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. PF-5847. 2019 yil 8 oktabr. Qonun hullatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.

kompyuter grafik dasturlar va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini muhandislik grafikasi fanlarini o'qitish jarayonida joriy etish muammolari L.V.Ivannikova, Y.I.Pritula, A.Y.Lixachev, T.V.Sofronova, O.I.Filatova, S.A.Gudkov, A.A.Pavlovalar, talabalarda fazoviy tasavvurni rivojlantirish muammolari A.I.Shutov, V.Y.Sherbakovalar tomonidan tadqiq qilingan.

Xorijiy mamlakatlarda kompyuter grafik dasturlar vositasida 3D texnologiyalarini ta'lim jarayonida joriy etish muammolari bo'yicha John Lasseter, Danilo Jimenez Rezende, Kerlow Isaac Victor, Syeda Binish Zahra, Roland N. Kangong, Bahaa Mustafa, Kaichun Mo, Xinchun Yanlar tomonidan o'rganilgan.

Tadqiqotlar va ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili kompyuter animatsion 3D modellar imkoniyatlari, o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish, vizual axborotlarni kiritish asosida ko'rgazmalilikdan foydalanish, shuningdek, bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarining fazoviy tasavvurini va grafik savodxonligini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqishga imkon berdi.

Shuningdek, chizmachilik fani xususiyatidan kelib chiqib, bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarining tasavvurini rivojlantirishga ko'maklashuvchi ko'rgazmali vositalardan foydalanishda moddiy va nomoddiy modellarni namoyish qilish imkoniyati bo'lmaganligi, kompyuter grafik dasturlardan foydalanib animatsion 3D modellarini namoyish qilishga ehtiyoj paydo bo'ldi.

Tadqiqot ishi chizmachilik fanidagi murakkab fazoviy jarayonlarning mazmuni hamda ularning kompyuter grafik dasturlarida yaratilgan animatsion 3D modellarning mantiqiy ketma-ketligi ishlab chiqilganligi va ularni vizual ko'rish imkoniyati mavjudligi bilan farqlangan.

Chizmachilik fanini o'qitishning oldida turgan asosiy vazifalardan biri ham – ixtisosligi bo'yicha chuqur nazariy bilimga hamda mustahkam amaliy tajribaga ega bo'lgan malakali mutaxassislar tayyorlashdir. Oliy ta'limda chizmachilik fani o'qituvchisi bir nechta grafik dasturlarga ishlashni bilishi, ularni ta'lim jarayonida qo'llay olishi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Biroq kompyuter grafik dasturlarining ko'pligi hamda imkoniyatlari jihatidan chizmachilik amaliyotida foydalanish va soha xususiyatidan kelib chiqib tanlash, kompyuter grafik dasturni o'zlashtirishning birinchi bosqichi hisoblanadi.

Jumladan, Autodesk firmasining ko'plab dastur mahsulotlari mavjud bo'lib, Auto CAD, 3ds Max, SolidWorks va Revit grafik dasturlari butun jahonda keng ommalashgan dasturlar qatoriga kiradi. Muhandislik grafikasi fanlarida chizma chizish ishlarini bajarish uchun qulay imkoniyatlarga ega Auto CAD grafik dasturi bo'lsa, 3ds Max grafikaviy dastur, turli xil uch o'lchamli (3D) loyiha yaratish, modellarga tabiiy tekstura berish, animatsion kadrlar yaratish va vizualizatsiyalash bo'yicha juda ommabob dastur sanaladi. SolidWorks mashinasozlik chizmalarini chizish, animatsiya va simulyatsiya qilish imkoniyatini beradi. Revit grafik dasturi arxitektura-qurilish chizmalarini bir vaqtning o'zida ham planirovka va 3 o'lchamli modelini namoyish qilish imkoniyatiga ega. Ularning yordamida o'quv jarayoni borishini jadallashtirish, nazorat qilish, o'quv materiallarini ancha sodda va yaqqol tasvirlar yordamida bayon qilish kabi imkoniyatlarga ega.

Ta'lim jarayoni strukturasi grafik dasturlar asosida tashkil etish o'quv mashg'ulotga qo'yiladigan didaktik, jumladan, yangi metodlarni qo'llashni, chizmachilik fanida fazoviy jarayonlarning animatsiyali 3D modellarini yaratish, shu bilan birga bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilariga yangi bilimlarni o'zlashtirish ko'nikmasini faollashtirish hamda tasavvur qilish qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradi.

Bu o'rinda chizmachilik fani, talabalarning fazoviy tasavvurlarini shakllantirishda juda katta imkoniyatlarga ega. Fazoviy tasavvur va uni rivojlanishsiz chizmachilik fanining asosiy mavzularini o'zlashtirish imkonsiz.

Chizmachilik fanida fazoviy tasavvur — bu tasvirlanadigan modelning geometrik shakli, hajmi, fazodagi joylashuvi, geometrik elementlarining o'zaro nisbatlari hamda ularning joylashish o'rnini insonning xayolan tasavvur qila olish qobiliyatidir.

Bugungi kun chizmachilik fanida ko'rgazmalilik ta'lim sifat va samaradorligini oshirish, buning uchun animatsion 3D modellardan foydalanib o'qitish metodikasini takomillashtirish, bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarini zamon talablari asosida ilmini oshirish va buning natijasida ilmiy-texnikaviy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularda mantiqiy fikrlash, mustaqil ijodiy faoliyat ko'rsatish xususiyatlarini tarbiyalash kabi global vazifalarni hal qilishga yo'naltirilgan. Bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarida mantiqiy fikrlash va mustaqil ijodiy faoliyat tizimida fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Chunki fazoviy tasavvur kelajakda tadbirkorlik, bunyodkorlik, ishbilarmonlik kabi fazilat va mehnat ko'nikmalarini talabalarda tarkib toptirishda muhim ahamiyatga ega.

O'qitish amaliyotidan ma'lum bo'ldiki, chizmani tasavvur qilish va uni tasvirlashda aksariyat talabada mavjud muammolardan biri bu, fazoviy detallarni vizual ko'rish imkoniyatini yetarli darajada emasligidir.

Nazariy tahlil bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarida fazoviy tasavvur va grafik savodxonlik faoliyatiga tayyorlash darajasini tavsiflovchi animatsion 3D modellar chizmachilik ta'limining zaruriy qismi sifatida, AutoCAD, 3ds Max, SolidWorks va Revit grafik dasturlari mazkur jarayonni amalga oshirishning zaruriy shart-sharoit sifatida ajratib ko'rsatishga imkon berdi.

Chizmachilik ta'limida animatsion 3D modellardan foydalanish talabalarda fazoviy tasavvur va grafik savodxonlik rivojlantirishda samarali vositadir. Animatsion 3D modellardan foydalangan holda o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish bu yangi ta'lim muhiti bo'lib, bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarining yashash joyi va moliyaviy imkoniyatlaridan qat'iy nazar ta'lim olish imkoniyatini yaratuvchi, o'qitishning yangi usullarini yaratishga imkon beruvchi, zamonaviy ta'lim sifatini oshiruvchi, individual ta'lim muhitini yaratuvchi, ijtimoiy muhitga moslashuvchan, onlayn va oflayn kurslarda hamda «Chizmachilik» fanidan animatsion 3D modellar orqali yangi bilimlarni egallash imkonini yaratishga bevosita ta'siri aniqlandi.

Shuningdek, chizmachilik sohasida axborot texnologiyalarini kirib kelishi murakkab ko'rgazmalilikning yechimini osonlashishiga sabab bo'ldi.

Chizmachilik ta'limida ko'rgazmalilik prinsipi muhim o'rin tutadi. Talabalar fanni o'zlashtirish jarayonida fazoviy obyekt va hodisalarni yoki ularning tasvirini

jonli tasavvur etish, xulosalar sari abstrakt ma'lumotlardan aniq faktlar sari borishni talab etadi. Talabalarga chizmachilik fanini o'qitishda ko'rgazmalilik prinsipi o'rganilayotgan obyektlarni namoyish qilish, chizmachilik modellarini har tomonlama kuzatish imkoniyatlarini izohlash, fazoviy jarayonlarni tabiiy ko'rinishlarda anglash, kuzatish yo'llari orqali amalga oshiriladi.

Bunda animatsion 3D modellar vositasida ko'rgazmalilikdan foydalanish, ta'lim jarayoni sifatini oshirish va bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarining bilim olishlarini osonlashtirishga erishiladi.

Demak, animatsion 3D modellar ushbu muammoning yechimiga asos bo'lib, oliy ta'lim chizmachilik fanini o'qitish jarayonida ko'rgazmalilik vositasi sifatida animatsion 3D modellarni taqdim etilishi natijasida talabalarda o'qishga qiziqish shakllanganligi, kuzatuvchanlik, diqqat va fikrlashlarini rivojlantirishga erishilganligi aniqlangan.

Tadqiqot jarayonida yaratilgan animatsion 3D model chizmachilik mavzulari xususiyatlarini inobatga olgan holda, o'qitishda qo'llaniladigan obyekt chizmalarini ko'rgazmalilik vositasi sifatida qo'llanilishga mo'ljallangan metodik ta'minot majmuidir. Chizmani nafaqat sinf doskasida chizish, balki animatsion 3D modellardan o'quv mashg'ulotlarida foydalanib, ma'lumot berishning ko'p hajmda yetkazish, o'zlashtirishning samaradorligiga erishish mumkinligi aniqlangan.

Demak, chizmachilik fanini o'qitishda animatsion 3D modellarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarining fazoviy tasavvurini rivojlantirishda muhim vosita ekanligi, ya'ni "Chizmachilik" fanini kompyuterli animatsion 3D modellar asosida o'qitish bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarining fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish natijasida grafik ta'lim sifati va samaradorligini ham oshirishga xizmat qilgan.

Animatsion 3D modellardan foydalanishning imkoniyatlari, "Chizmachilik" fanidan ko'rgazmalilikni ta'minlashda kompyuter dasturiy ta'minotidan foydalanish bo'yicha aniq tavsiya va kerakli animatsion 3D modellarni modellashtirish asosida qo'llanma yaratilgan hamda ta'lim jarayoniga qo'llash bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarini kompyuter animatsion 3D modellardan foydalanish metodikasi"** deb nomlanib, chizmachilik fanini o'qitish jarayonida kompyuter animatsion 3D modellardan foydalanish mazmuni, bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarini kompyuter animatsion 3D modellardan foydalanishning shakl, metod va vositalari hamda bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarini kompyuter animatsion 3D modellardan foydalanish metodikasini takomillashtirish modeli yoritilgan.

Chizmachilik o'quv mashg'ulotlarini 3D texnologiyalar asosida tashkil etilishi ancha samarali natijalar beradi. 3D texnologiyalarning chizmachilik o'quv mashg'ulotlariga amaliy tatbig'i sifatida talabalarga, mavzu mohiyatini bosqichma-bosqich, mukammal tarzda yelkazib berish imkoniyatlari aniqlangan.

Chizmachilik fanini o'qitish jarayonida animatsion 3D modellaridan foydalanish yordamida talabalarga: fazoviy tasavvur rivojlanadi; o'zlashtirish ko'rsatkichlari

yuqori bo‘ladi; xotirada saqlash davomiyligi ortadi; ijodiy va mantiqiy fikrlash rivojlanadi; yangi loyihalar va ularni yaratish uchun imkoniyatlar ochiladi; chizmachilikka doir bo‘lgan grafik ishlarni bajarishda talabalarga birmuncha qulayliklar yaratiladi va osonlashishiga yordam beradi.

Mavzu mohiyatini animatsion 3D modellar vositasida tashkillashtirish quyidagi afzalliklarga ega:

1-jadval

animatsion 3D modellar yordamida bir vaqtning o‘zida bir necha chizmalar bilan ishlash imkoniyati mavjud	chizmachilikdagi shartli grafik tasvirlarning aniq chizilish imkoniyatining mavjudligi
bir vaqtning o‘zida ko‘rgazmali material sifatida foydalanishligi	talabalar mavzu bo‘yicha o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan chizmalarni 3D modellar orqali ya’nada mukammal tushunishlari
vizual axborotning sifati auditoriya doskasidagi axborotga nisbatan yuqori	bayon qilish tezligi an’anaviy mashg‘ulotlarga nisbatan yuqori
ikki o‘lchamli chizmalarning isbotini uch o‘lchovli chizmalarda bir vaqtning o‘zida ko‘rsatish imkoniyati	agar biron-bir talabada keyinchalik savol paydo bo‘lsa, o‘qituvchi osongina bosqichma-bosqich oldingi chizmaga qaytishi mumkinligi
chizmachilik fanining bo‘limlari bo‘yicha materiallar, ma’ruzaning yuqori ko‘rgazmali bo‘lgani tufayli osonroq o‘zlashtiriladi	talabalarda fazoviy tasavvurni rivojlanishiga ko‘maklashadi

Kompyuter grafikasiga tegishli bo‘lgan zamonaviy dasturiy vositalar asosida yaratilgan animatsiyali 3D modellar fanni o‘qitishda o‘qituvchi uchun yordamchi ko‘rgazmali vosita bo‘lib xizmat qilsa, bilimlarni o‘zlashtirayotgan bo‘lajak chizmachilik fani o‘qituvchilari uchun fanning ma’no-mazmunini tushunishga, fazoviy tasavvuri, ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanishiga, fanni o‘zlashtirish ko‘rsatkichini yaxshilashga erishilgan.

“Chizmachilik” fanini o‘qitishda o‘quv mashg‘ulotlar jarayonida animatsion 3D modellarni qo‘llashdan asosiy maqsad quyidagilardan iborat: talabalarda fanga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, ya’ni qiziqtirish; talabalar fazoviy tasavvurini shakllantirish; talabalarda ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish; mustaqil ta’lim jarayonida talabalar tomonidan grafik topshiriqlarni mustaqil va xatosiz bajarilishini amalga oshirish; fan bo‘yicha kerakli bilim va ko‘nikmalarni tartibli va samarali egallashlarini tashkillashtirish.

Bugungi kunda 3D texnologiyalardan foydalanib chizmachilik o‘quv jarayonida animatsion 3D modellarni qo‘llash: fan bo‘yicha ma’lumotlar bazasini realizatsiya qilishdagi zarur texnik va dasturiy vositaligi; ta’lim jarayonida o‘qituvchiga yordamchi ekanligi; animatsion usullar orqali o‘quv materiallarini idrok etish va anglash vositasiligi; bilimlarni o‘zlashtirayotgan talabalarning tasavvurini shakllantirishi; o‘quv materiallarni yangilash va to‘ldirishi; bilim-ko‘nikmalarni nazorat qilish va ijodiy faoliyatni rivojlantirishi; ta’lim jarayonida eng zamonaviy ko‘rinishdagi bilimlar

bazasini yaratish va tarqatish vositasi ekanligi; masofaviy ta'limda ma'lumotlarni o'qish va o'rganish obyekti; animatsion 3D modellar ko'rinishdagi elektron kutubxona hamda fan bo'yicha barcha ma'lumotlar bilan ta'minlanganligi kabi vazifalarni bajarishi aniqlangan.

“Chizmachilik” fanini o'qitish jarayonida metrik va pozitsion masalalar yechish o'ziga xos qiyinchiliklari bo'lganligi uchun, ushbu masalalarni yechish jarayoni animatsion 3D modellar ishlanmalari bilan berilgan, natijada talabalarning o'zlashtirishi osonlashgan.

Uch o'lchamli modellarni shakllantirishning an'anaviy jarayondan farqli jihati bu jarayon – kompyuter texnologiyasida ishlab chiqilgan. Bu o'rganilayotgan obyektning tekislikdagi statik tasvirini dinamik tasvirga o'tish imkonini bergan.

Tekislikdagi statik tasvirni dinamik tasvirga almashtirish-tekislikdagi chizmani (3D modelga aylantirish) vizuallashtirish – 3D modelni dinamik ko'rinishga keltirish, modellashtirish – model harakatini namoyish etish imkonini bergan.

Dissertatsiyada kompyuter animatsion 3D model – kompyuter grafik namoyish dasturlari vositasida yaratilgan moddiy obyektlarning statik tasvirini fazoviy jarayonlarda vizual dinamik obrazini uch o'lchamda tasavvur etish imkonini yaratishga qaratilgan vizuallashtirish obrazlar majmui deb ta'riflangan.

Animatsion 3D modellar nafaqat obyektning tashqi tuzilishi, balki ichki xususiyatlarini aks ettirishga imkon berishi, o'quv mashg'ulotlarida talabalarga tezda tasavvur qilish ko'nikmalarini shakllantirishi aniqlangan.

Animatsion 3D modellar quyidagi mezonlar asosida yaratilgan: fazoviy obyektlarni alohida elementlar asosida tasavvur qilish; qulay vaziyatni tanlash; kompozitsiyani to'g'ri tuzish; aniq yoritish; ranglar mutanosibligi; fazoviy jarayonlarning yaqqolliigi va realligi; harakatlarning mantiqiy ketma-ketligi; kompyuter animatsion 3D modelning mantiqiy yakuni.

Har qanday kompyuter animatsion 3D model xususiyatlari: ta'lim jarayonida teskari aloqaning ta'minlanishi; o'quv jarayonini individuallashtirish imkoniyatining borligi; o'quv jarayonining ko'rgazmaliligini oshirishi; o'rganilayotgan jarayon yoki hodisalarni transformatsiyalash mumkinligi; jamoaviy yoki individual tartibda o'qitishda undan foydalanish mumkinligi; ta'limning interfaol usul va uslublarning mavjudligi; o'quv mashg'ulotlarini yuqori sifatli darajada o'tkazilishi; bilimlarni hosil qilish va o'zini baholash imkoniyatlarini yaratilishi; ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarning o'zaro aloqadorligini ta'minlashi; axborotni yangi shaklda multimedia vositasida uzatilishi kabilardan iborat.

Animatsion 3D modellardan talabalarda individual foydalanish imkoniyatini tashkil etishda Internet kanali (You Tube)ga joylashtirish, vaqt byujetiga va mustaqil o'zlashtirishga yaxshi samara berishi aniqlangan. Buning uchun esa quyidagi didaktik vazifalarga amal qilish lozimligi aniqlangan: o'rganilayotgan mavzu yuzasidan, aniq va to'liq ma'lumotlar bilan ta'minlash; ko'rgazmali ta'limni ko'paytirish (murakkab jarayonlarni vizual ko'rinishini yaratish); talabalarning mustaqil ish hajmini oshirish (berilgan vazifalarni amalga oshirgan holda, ilmiy bilimlarni oshirish); talabalar faoliyatini chuqurlashtirish, ularning ilmiy faoliyatini optimal hamda tez sur'atlarda o'sishini ta'minlash; talabalarning bilim olishga qiziqishlarini maksimal darajada

qondirish; teskari aloqani tashkillashtirish; talabalarning faoliyatini nazorat qilib borish hamda ularga zaruriy ko'rsatmalar berish; fan bo'yicha qo'shimcha adabiyotlarni o'qish va internet kanaliga joylashtirilgan animatsion 3D modellardan mustaqil foydalanib borish.

“Chizmachilik” fanida animatsion 3D modellar asosida o'qitish, bugungi kunda ta'lim va tarbiya jarayoni uchun ulardan foydalanishning yangi bosqichi bo'lib, an'anaviy o'qitishda hamda masofaviy o'rganishda foydalanilib kelinmoqda. Bu esa tarmoqda o'quv materiallarini professor-o'qituvchi va talabalar o'rtasida samarali muloqotni tashkillashtirish hamda fanni mustaqil o'zlashtirish uchun keng ko'lamda imkoniyatlar yaratib beradi.

Chizmachilik ta'limi samaradorligini oshirish istiqbollarining strategiyasini bosqichma-bosqich modellashtirish quyidagicha:

2-jadval

1-bosqich	Chizmachilik fanini o'qitish jarayonida talabalar fazoviy tasavvur va grafik savodxonlik ko'nikmalarini animatsion 3D modellar vositasida rivojlantirish imkoniyatlarini amalga oshirish
2-bosqich	Chizmachilik fanida ko'rgazmalilik, animatsion 3D modellar vositasida vizual axborotlarni o'quv jarayoniga joriy qilish
3-bosqich	Animatsion 3D modellarni vizual ko'rishda Mobil ta'limni rivojlantirish orqali internetdan maqsadli foydalanadigan talabalar qamrovini oshirish
Yakuniy bosqich	Bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarini kompyuter animatsion 3D modellardan foydalanish metodikasini takomillashtirish

Ta'lim jarayonida talabalar You Tube internet kanalidan foydalanishlari uchun chizmachilikdan animatsion 3D model resurslari shakllantirilgan. Ushbu 3D modellar yordamida talabalarga zamonaviy “Mobil-Ta'lim” texnologiyalari orqali bilim berish maqsadida QR-kodli o'quv adabiyoti yaratilgan. QR-kodlar orqali turli qiziqarli (animatsion 3D modellar) ma'lumotlar bilan tanishish mumkin. Bu kabi o'zgarishlar qo'llanma sahifalarining ixchamlashishiga, eng muhimi, talabalarda fanga qiziqishni orttirishi kuzatilgan.

Bu turdagi o'quv adabiyotlar barcha o'quv jarayonining didaktik sikli: nazariy ma'lumotlar, masalalarni yechish ketma-ketliklarini animatsion ko'rinishda bo'lishi, ta'lim jarayonida foydalanishi, olingan bilim darajasini nazorat qilish hamda ma'lumotlarni qidirish (QR kod) tizimining mavjudligi kabi ko'rsatkichlariga ko'ra boshqa o'quv adabiyotlaridan ajralib turadi.

Ijobiy jihatlarga ko'ra, ta'lim sohasida Internetdan foydalanishda Mobil-Ta'limni rivojlantirish talabalarga, mustaqil axborotlarni izlash, keng axborot resurslaridan foydalanish, ularga faol kirishga ega bo'lish imkoniyatlarini yaratib berganligi aniqlangan.

Yana bir muhim jihat qo'llanma mazmunini shakllantirishda quyidagi malaka talablariga ahamiyat berildi.

3-jadval

Vizual axborotlarni kiritish	Tabiiy buyumlar va geometrik sirtlarning ortogonal va aksonometrik proyeksiyalarini hosil qilish hamda ularni chizish usullari, ularga oid bo'lgan masalalar (kesim,
------------------------------	--

	qirqim)ni yechish malakasi va shu bilan birga mazkur chizmalarni davlat standarti asosida bajarish bilimiga ega bo'lishi
Tekislikdagi statik tasvirni dinamik tasvirga almashtirish	Fazoviy jism elementlarining o'zaro munosabatlarini uning planimetrik tasviridan qayta fazoviy holatiga ko'chirib o'tish qonuniyatlarini tadqiq qilish qobiliyatiga ega bo'lishi
Tasavvurni oshirish	Uch o'lchamli geometrik modelni loyihalay olish qobiliyatiga ega bo'lishi
Ta'sirchanligini kuchaytirish	Amaliy harakatlarini bajarish ko'nikmasiga va malakasiga ega bo'lishi

Yuqoridagi asoslardan kelib chiqqan holda, yangi turdagi o'quv metodik ta'minot ishlab chiqildi va unda animatsion 3D modellar majmuidan foydalanildi.

Qo'llanma mazmunida nazariy ma'lumotlar matni, 3D modellarning ikki o'lchamli statik chizmasi va "QR" texnologiyasi asosida animatsion 3D modellar mujassamlashgan. Mazkur chizmalardan foydalanish uchun smartfon "QR" kod belgisi rasmga yo'naltiriladi. Natijada tasvir fazoda 3D ko'rinishda hosil bo'ladi va dinamik holatga o'tadi. Bu jarayondan talaba chegaralanmagan vaqtda foydalanishi mumkin. Talaba istagan vaqt, istagan joyda mustaqil fanni o'zlashtirish imkoniga egaligi aniqlangan.

Bundan tashqari, qo'llanmada bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarining fazoviy tasavvuri va grafik savodxonligini rivojlantirishga ham alohida e'tibor berilgan.

Bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarining fazoviy tasavvuri va grafik savodxonlik ko'nikmalari asosan chizmachilik bo'limlarining geometrik va proyeksion chizmachilik bo'limlarini o'qitishda amalga oshiriladi.

Geometrik va proyeksion "Chizmachilik" fanini fan dasturida fanga ajratilgan soatlarga qaraydigan bo'lsak, ma'ruza mashg'uloti uchun 20 soat, amaliy mashg'ulot uchun 40 soat ajratilgan. Biroq malaka talablari va davlat standartlari doiradida ma'lumotlarning optimal variantlari ajratilganda 60 tadan ortiqni tashkil qildi. Agar talabada har bir chizmani bir juftlikda chizish imkoniyati bo'lsa, unda 120 soat amaliy mashg'ulotni o'ziga ajratish kerak bo'ladi. Shunda talabaning grafik savodxonligini yaxshilashga erishish mumkin.

Animatsion 3D modellardan foydalanishda talabalarning grafik savodxonligini takomillashtirish bosqichlari:

4-jadval

kasbiy faoliyatida <i>grafik savodxonligini</i> oshirishga amaliy foydali bo'lgan mavzularni aniqlash
3D modellarda imkon qadar samarali talqin qilish imkonini beruvchi variantlarni aniqlash
ma'lumotlarning har xil turlarini bitta uch o'lchamli model yaratish fazosida ifodalash
grafik ish bajarishning oqilona metodini tanlash
tasvirlash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni kiritish va grafik ma'lumotlarni tasvirlash usullari

